

## **Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida sensor tarbiyaning ahamiyati**

Dilbar Ziyodullayevna Yodgorova  
olimovlaziz82@gmail.com  
Buxoro shahar, 67-MTM

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida sensor tarbiyaning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik tasavvurlar, raqamli iqtisodiyot, matematik ong, zamonaviy maktabgacha ta'lif, tenglik va tengsizlik, didaktik materiallar, geometrik shakllar, taqqoslash, hisoblash.

## **The importance of sensory education in the mental development of preschool children**

Dilbar Ziyodullayevna Yodgorova  
olimovlaziz82@gmail.com  
Bukhara city, Preschool Education Organization 67

**Abstract:** This article discusses the importance of sensory education in the mental development of preschool children.

**Keywords:** mathematical imagination, digital economy, mathematical consciousness, modern preschool education, equality and inequality, didactic materials, geometrical forms, comparison, calculation.

So'nggi yillarda jamiyatimiz taraqqiyot qilgan sari yoshlarimizga bo'lgan e'tibor ham kun sayin oshib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual moslashuvchanligi ularning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi uchun keng sharoit yaratilmoqda. Erta yoshdan bolalarning ijodiy qibiliyatları kurtak otishiga turtki bo'luvchi harakatlar maktabgacha ta'lif tashkilotlaridan boshlanishi bejizga emas. Maktabgacha yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish juda muhim ahmiyatga egadir.

Aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Maktabgacha yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir ettirishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rijojlantirishni o'z

ichiga oladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bilimlar zaxirasini egallash, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirish muktabda muvaffaqiyatli o‘qish bo‘lg‘usi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartlaridir.

Aqliy kamolot - bu yoshning o‘sib tarbiyaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta’siri bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarning majmuasidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda bilim tez sur’atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minalash ularning keljakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola ijtimoiy muhit ta’sirida aqliy tamonidan rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, aplikatsiya, qurish-yasash) jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta’lim va tarbiya samaraliroq ta’sir etadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni metodi va tashkil etishiga qarab belgilanadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyalashning roli kattadir. Bolalarning bilimlarini egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish mustaqillik, aqliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishlari ularning muktabda muvaffaqiyatli o‘qishi va bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. *Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasini, imliy dunyoqarashini shakllantirish;*
2. *Bilishga doir ruhiy his tuyg‘u jarayonlarini rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq.*
3. *Bilishga qiziqish va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish .*
4. *Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish.*

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta’sir sistemasidir. Sensor tarbiyaning maqsadi maktabgacha yoshidagi bolalarning sensor qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat.

Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatalishini, nomigagina bilish etarli bo‘lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushslash, ular bilan muomalada bo‘lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir, deb biladi.

Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida etibor berish, bolalarga tegishli topshiriqlar berish, buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishdan, ularga og‘irligini his qilish, buyumni qo‘lga olib, uning sirtini sezish va sifatini silliq yoki g‘adir - budirligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o‘xshashlarni aniqlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshidagi bolalarga ta’lim berish, ularda bilim, malaka , ko‘nikmalarni hosil qilish shunday bir jarayonki, unda tarbiyachi bolalar oldiga ma’lum vazifalarni qo‘yadi, ularda o‘z tevarak atrofini o‘rab olgan dunyo haqida to‘g‘ri tushinchalar hosil qiladi, ularga narsa hodisalar o‘rtasidagi eng oddiy bog‘lanishlarini tushuntirib beradi, ularni o‘yin, o‘quv, faoliyatida egallagan bilim va malakalardan foydalanishga o‘rgatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ostonov J.Sh. Basic strategies for coping behavior in adolescents. E-Conference Globe 2021/7/26 275-277 c
2. Ostonov J.Sh. Coping behavior and its research style. Proceedings of 7th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements// Hosted online from, New York, USA//June 25, 2021. 237-239 b
3. Ostonov J.Sh. Socio-Psychological Basics of The Study of The Styles of Attitude in Coping by. Adolescents Middle euopen scientific bulletin Volume 13 June 2021. Б. 442-446
4. Остонов Ж.Ш. Изучение копинг-стратегий и психологических защит у подростков в трудных учебных ситуациях. Вестник интегративной психологии // Ярославль, 2021. Выпуск 22. С.144-146
5. Остонов Ж.Ш. Концепция копинга: определение, функция и виды. Вестник интегративной психологии // Ярославль, 2020. Выпуск 22. С.279-281
6. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда психологик ҳимоя ва копинг хулқ-атвор омиллари намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари. Psixologiya jurnali. 2021 й. 4сон. 66-73 b
7. Остонов Ж.Ш. Факторная структура копинг-поведения подростков. Психология илмий журнали. 2020. № 4. Б.47-50
8. Остонов Ж.Ш. Копинг-ресурсы личности и адаптационный потенциал. Мактабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар: истиқболлар, муаммолар ва ечимлар Республика масофавий илмий-амалий анжумани. БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь Б.297-299

9. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафақиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар //Республика илмий-амалий анжуман2021 йил 28 май Б.134-135
10. Остонов Ж.Ш. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе. Педагогик маҳорат илмий журнали. Бухоро, 2020. №6 Б.102-104
11. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги енгга олиш хулқ-атворининг асосий стратегиялари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар. Республика илмий-амалий анжуман 2021 йил 28 май Б.132-133
12. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда копинг хулқ-атвор омиллари шакланишининг ижтимоий психологик механизмлари. Тафаккур ва талқин мавзусида //Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.817-820
13. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафақиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Тафаккур ва талқин мавзусида // Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.812-817
14. Мирзаева Д.Ш, Курбанова З.И. Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста. *Scientific progress* 2 (7), 1206-1212
15. Z. Kurbonova. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
16. Z.I. Qurbonova, M.N. Muqimova. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari. *Science and Education* 3 (4), 969-973
17. Z.I. Qurbonova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz. *Ekonomika* 1035-1038
18. J.Sh. Ostonov O'smirlarda koping xulq-atvor omillari namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari
19. J.Sh Ostonov, M.M. Ibragimov. Bokschi sportchilarda psixologik muhofazaning ijtimoiypsixologik xususiyatlari. *Science and Education* 3 (4), 1534-1539
20. J.Sh Ostonov, F. Adizova. O'smirlik davrida emotsional holatlarning o'ziga xos xususiyatlari *Science and Education* 3 (4), 1547-1553
21. J.Sh. Ostonov, A. Abdullayev. O'smirlarda psixologik himoya va koping xulq-atvor omillari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education* 3 (4), 1540-1546

22. J.Sh. Ostonov. O'smirlarda koping xulq-atvor omillari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education* 3 (3), 990-996
23. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal.* volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
24. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. *science and education scientific journal* volume 3, issue 3 march 2022 442-447
25. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.
26. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
27. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. *Science and Education*, 3(4), 1916-1922.
28. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
29. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
30. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
31. Olimov L.Ya. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. – 460.
32. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИННИНГ ИЖТИМОЙИ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
33. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
34. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. *Psixologiya*, 4, 16.
35. ZA Jo'Rayeva, ZM Maxmudova. Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. *Science and Education* 3 (4), 1916-1922
36. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. *Вестник интегративной психологии журнал для психологов*, (22), 233-237.